

AGROKLASTER TIZIMIDA INNOVATSION BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Sultonov Azamat

BuxDU tadqiqotchisi

“Buxoro agroklastar” MCHJ rahbari

Annotatsiya

Mazkur maqolada agroklastar tushunchasining nazariy asoslari, uning klassik sanoat klasteridan farqli jihatlari hamda jahon va O‘zbekistonda agroklastarlarning shakllanish dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida ilmiy adabiyotlarning tizimli tahlili, statistik ma’lumotlarning qiyosiy tahlili va SWOT-tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijada agroklastarning olti o‘ziga xos xususiyati, boshqaruvning yetti asosiy tamoyili aniqlangan, shuningdek amaliyotda uchraydigan institutsional muammolar tizimlashtirilgan. Niderlandiya, Yevropa Ittifoqi va Turkiya tajribasi asosida O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: agroklastar, klaster nazariyasi, qo‘shilgan qiymat zanjiri, boshqaruv tamoyillari, SWOT-tahlil, raqamli qishloq xo‘jaligi,

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations of the concept of an agrocluster, its differences from a classical industrial cluster, and the dynamics of the formation of agroclusters in the world and Uzbekistan. The study used a systematic analysis of scientific literature, a comparative analysis of statistical data, and SWOT analysis methods. As a result, six specific features of an agrocluster and seven basic principles of management were identified, and institutional problems encountered in practice (economic dependence of farms, contractual disputes, monopoly risk) were systematized. Based on the experience of the Netherlands, the European Union, and Turkey, practical recommendations for Uzbekistan were developed.

Keywords: agrocluster, cluster theory, value chain, management principles, SWOT analysis, digital agriculture,.

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические основы концепции агрокластера, его отличия от классического промышленного кластера, а также динамика формирования агрокластеров в мире и в Узбекистане. В исследовании использованы методы систематического анализа научной литературы, сравнительного анализа статистических данных и SWOT-анализа. В результате были выявлены шесть специфических характеристик агрокластера и семь основных принципов управления, а также систематизированы институциональные проблемы, встречающиеся на практике (экономическая зависимость фермерских хозяйств, договорные споры, монопольный риск). На основе опыта Нидерландов, Европейского союза и Турции разработаны практические рекомендации для Узбекистана.

Ключевые слова: агрокластер, теория кластеров, цепочка создания стоимости, принципы управления, SWOT-анализ, цифровое сельское хозяйство,

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirish va xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali qo‘shilgan qiymatni oshirish masalasi O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ushbu maqsadga erishishning samarali vositalaridan biri sifatida agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish modellari e’tirof etilmoqda.

Klasterlar dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining samarali o‘sish drayveri sifatida iqtisodiy faoliyatning qariyb 50 foizini qamrab olgan. Jumladan, AQSHda 380 ta klaster faoliyat yuritib, yalpi ichki mahsulotning 60 foizi ularning hissasiga to‘g‘ri keladi. Italiya sanoatida band bo‘lganlarning 43 foizi 206 ta klasterda mehnat qiladi va mamlakat eksportida ushbu klasterlarning ulushi 30 foizni tashkil etadi. Xitoyda 60 dan ortiq maxsus klaster 30 mingga yaqin korxonani birlashtirib, ularda 3,5 million kishi band bo‘lgan va yiliga 200 milliard AQSH dollariga teng mahsulot ishlab chiqariladi.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2018-2022 yillarda 506 ta klaster shakllantirilgan. So‘nggi besh yilda ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32 baravar oshib, 2022-yilda 28,7 trillion so‘mga yetgan. Shu davr ichida klasterlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 5,2 marotaba, bandlik 2,5 marotaba ortgan, klasterlarning jami sanoat eksportidagi ulushi 5 foizdan 11,4 foizga ko‘tarilgan, mehnat unumdorligi 12,9 baravar, investitsiyalarning rentabellik koeffitsiyenti (ARR) esa 1 dan 1,4 gacha oshgan - bu klasterlashtirish modelining yuqori samaradorligidan dalolat beradi[1].

So‘nggi yetti yil mobaynida mamlakatda agroklastlar sonining keskin ortishi mazkur tizimning qishloq xo‘jaligida ham amaliyotga faol joriy etilayotganidan dalolat beradi, biroq buning barobarida institutsional boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. [1].

Iqtisodiy adabiyotlarda “klaster” tushunchasining ilmiy ildizlari ingliz iqtisodchisi Alfred Marshallning 1890 yilda nashr etilgan "Iqtisodiyot prinsiplari" asariga borib taqaladi. Marshall ixtisoslashgan tarmoq subyektlarining ma’lum hududda to‘planishi (aglomeratsiyasi) hodisasini o‘rganib, bunga sabab bo‘luvchi omillarni - malakali ishchi kuchining mavjudligi, yordamchi va ta’minotchi tarmoqlarning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida ixtisoslashuvning chuqurlashuvi - ko‘rsatib bergan[2]. Nazariyaning zamonaviy, to‘laqonli shakllanishi esa amerikalik iqtisodchi Maykl Porterning 1990-yilda chop etilgan "Millatlarning raqobatbardoshlik ustunligi" nomli fundamental asari bilan bog‘liq[3]. Porter klasterlarni muayyan hududda joylashgan, o‘zaro bog‘liq korxonalar, ta’minotchilar, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar hamda ilmiy-ta’lim muassasalari tizimi sifatida ta’riflaydi va geografik yaqinlik hamda subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faollikni rag‘batlantirish hamda umumiy raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Keyingi tadqiqotlarda (jumladan, Delgado, Porter va Stern tomonidan amalga oshirilgan ishlarda) klaster tarkibiga kiruvchi subyektlarning ishlab chiqarish o‘sishi, innovatsion

faolligi va investitsiyalar jalb etish imkoniyati klasterdan tashqaridagi mustaqil subyektlarga nisbatan ancha yuqori ekanligi empirik jihatdan isbotlangan[3].

Klaster nazariyasi qishloq xo‘jaligi sohasiga tatbiq etilganda, u “agroklaster” yoki “agrosanoat klasteri” tushunchasini shakllantiradi. Agroklaster - xom ashyo yetishtirishdan tortib, uni qayta ishlash, saqlash, tashish va yakuniy iste’molchi yoki eksport bozoriga yetkazib berishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga oluvchi, qo‘shilgan qiymat zanjirining barcha ishtirokchilarini (fermer xo‘jaliklari, qayta ishlovchi korxonalar, logistika va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, shuningdek ilmiy-tadqiqot muassasalari) yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi tashkiliy-iqtisodiy tizimdir. Uning klassik sanoat klasteridan farqli jihati shundaki, faoliyati biologik ishlab chiqarish sikliga, mavsumiylikka, tabiiy-iqlim omillariga hamda xom ashyoning tezda buziluvchanligiga bog‘liq bo‘ladi - bu esa axborot almashinuvi, logistika va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

1-jadval

Agroklasterlarda innovatsion boshqaruv bo‘yicha tadqiqotlarni yondashuv usuliga ko‘ra tizimlashtirish¹

№	Muallif(lar)	Yondashuv toifasi va mohiyati
1	Urdushev X., Eshonqulov S., Mavlyanov M.	Statistik-empirik yondashuv: meva-sabzavot klasterlarining turlari (Mustaqil, Tayyorlov-qayta ishlash, Aralash) bo‘yicha samaradorlikni statistik ma’lumotlar asosida qiyoslash
2	Eshonqulov S., Urdushev X.	Iqtisodiy-matematik modellashtirish: klaster zanjirini (ishlab chiqarish-qayta ishlash-sotish) chiziqli optimallashtirish usuli orqali boshqaruv qarorlarini asoslash
3	Kodirova X.I.	Nazariy-deduktiv yondashuv: paxta-to‘qimachilik misolida klasterlashtirish zarurligini tizimli tahlil va deduksiya orqali asoslash
4	Mustafakulov Sh.	Institutsional yondashuv: klasterli yondashuv asosida hududiy infratuzilmani shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash
5	Berkinov B. va b.	Iqtisodiy-matematik modellashtirish: fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarish faoliyatini modellashtirish
6	Abdulloyev A.J.	Institutsional-boshqaruv yondashuvi: agroklasterlar boshqaruvini kompleks baholash va davlat-xususiy sheriklik (co-finance) mexanizmi orqali takomillashtirish
7	Ergashev R.X., Beglayev U.X.	Tashkiliy-tuzilmaviy innovatsiya: baliqchilik klasterlari misolida yangi boshqaruv tuzilmasini loyihalashtirish
8	Adilova G.	Raqamli innovatsiya: "Aqli qishloq xo‘jaligi" konsepsiyasi orqali klaster boshqaruvini raqamlashtirish

Vaqtda agroklasterlarda innovatsion boshqaruvni takomillashtirishga oid tadqiqotlar bir necha yo‘nalishda olib borilmoqda. Garvard biznes maktabi professori M. Porterning "Raqobat rombi" modeli klaster paydo bo‘lishining obyektiv shartlarini (raqobat muhiti, talab sharoitlari, qo‘llab-quvvatlovchi tarmoqlar, ixtisoslashgan omillar) umumlashtirgan. Mahalliy olimlardan M.Ismoilov, X.Jo‘raqulov, D.Sodiqov, R.Ibrohimov, Sh.A.Abdullayev va boshqalar - klaster tizimining O‘zbekiston

¹ Manba: Muallif tomonidan tuzilgan

sharoitiga moslashuvi, strategik rejalashtirish, yagona koordinatsion kengashlar tashkil etish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va kadrlar tayyorlash masalalarini yoritgan.

Mavzu bo'yicha mavjud tadqiqotlarni yondashuv usuliga ko'ra tizimlashtirish ularni beshta asosiy toifaga ajratishga imkon beradi: (1) nazariy-deskriptiv yondashuv - klaster tushunchasini adabiyotlar sharhi va deduksiya orqali tavsiflash; (2) statistik-empirik yondashuv - rasmiy statistikaga asoslangan miqdoriy tahlil; (3) iqtisodiy-matematik modellashtirish yondashuvi - klaster zanjirini chiziqli optimallashtirish orqali formallashtirish; (4) institutsional-boshqaruv yondashuvi - klaster ichidagi boshqaruv tamoyillari va tashkiliy tuzilmani o'rganish; (5) tor-sohaviy yondashuv - ma'lum bir jarayonni (masalan, buxgalteriya hisobi yoki raqamlashtirish) chuqur o'rganish. Asosiy vakillari 1-jadvalda keltirilgan.

Mavjud tadqiqotlarda agroklasterning statistik rivojlanish dinamikasi, amaliyotdagi institutsional muammolar va xorijiy mamlakatlarning ushbu muammolarni hal etish tajribasi yaxlit tarzda, qiyosiy tahlil asosida kam yoritilgan. Xususan, mavjud tadqiqotlarning aksariyati nazariy tavsif va statistik tahlil doirasida qolib, aniqlangan institutsional muammolarni xorijiy tartibga solish tajribasi bilan tizimli qiyoslash deyarli amalga oshirilmagan - bu mazkur maqola uchun tadqiqot bo'shlig'ini tashkil etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - agroklasterning boshqaruvining nazariy asoslarini tizimlashtirish, O'zbekistondagi amaliy holatni statistik ma'lumotlar va SWOT-tahlil orqali baholash hamda xorijiy davlatlarning (Niderlandiya, Yevropa Ittifoqi, Turkiya) ilg'or tajribasi asosida takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

METODOLOGIYA

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun bir nechta usullar majmuasidan foydalanildi:

1. Ilmiy adabiyotlarning tizimli tahlili usuli - klaster nazariyasining klassik (A. Marshall, M. Porter) va zamonaviy (Delgado, Porter, Stern) manbalari, shuningdek mahalliy olimlar (M. Ismoilov, X. Jo'raqulov, D. Sodiqov, R. Ibrohimov, Sh. A. Abdullayev va boshqalar) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar umumlashtirildi.

2. Statistik tahlil usuli - Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM), Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti hamda review.uz portalining 2017-2024 yillar bo'yicha agroklasterni soni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, eksport va investitsiya ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlari tahlil qilindi.

3. SWOT-tahlil usuli - agroklasterning tizimining kuchli va zaif tomonlari, shuningdek imkoniyat va xavflarini aniqlash maqsadida qo'llanildi.

4. Qiyosiy tahlil usuli - O'zbekiston amaliyotidagi institutsional muammolar (jumladan, Human Rights Watch hisobotida qayd etilgan holatlar) xorijiy davlatlar (Niderlandiya, Yevropa Ittifoqi, Turkiya) tajribasi bilan qiyoslandi.

5. Keys-stadi (amaliy tajribani o'rganish) usuli - Niderlandiyaning "Food Valley" va "Oltin uchburchak" modeli, FrieslandCampina kooperativi, Yevropa Ittifoqining Adolatsiz savdo amaliyoti direktivasi hamda Turkiyaning to'qimachilik klasteri misolida xorijiy ilg'or tajriba chuqur o'rganildi.

6. Sintez usuli - olingan natijalar asosida O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Tadqiqot uchun ma'lumotlar manbai sifatida rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar (Prezident Farmonlari), ITIM va review.uz statistik infografikasi, xalqaro tashkilotlar (Human Rights Watch, Yevropa Komissiyasi) hisobotlari, shuningdek ilmiy jurnallardagi nashrlar (ResearchGate, Scientific-jl, Globalsciences kabi platformalarda chop etilgan maqolalar) foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Klaster nazariyasining evolyutsiyasi va agroklasterning o'ziga xos jihatlari bo'yicha natijalar:

O'tkazilgan adabiyotlar tahlili natijasida agroklasterning innovatsion boshqaruvga oid to'rtta asosiy ilmiy yo'nalish aniqlandi: (1) M. Porterning klassik klaster nazariyasi va "Raqobat rombi" modeli; (2) mahalliy olimlarning strategik rejalashtirish va koordinatsiya bo'yicha yondashuvlari; (3) raqamli transformatsiya va "aqli qishloq xo'jaligi" konsepsiyasi; (4) sohaviy (tor yo'nalishdagi) innovatsion boshqaruv modellari. Ushbu yo'nalishlarning umumlashtirilgan natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Agroklasterning innovatsion boshqaruvga oid to'rtta asosiy ilmiy yo'nalish¹

№	Yo'nalish	Asosiy g'oya	Manba/olim
1	Klaster nazariyasi	Raqobat rombi, ixtisoslashgan omillar	M. Porter
2	Strategik koordinatsiya	Yagona koordinatsion kengash	M. Ismoilov, X. Jo'raqulov va b.
3	Raqamli transformatsiya	IoT, Big Data, GIS, aniq dehqonchilik	O'zbekiston tadqiqotlari
4	Moliyaviy-hisob innovatsiyasi	Xalqaro standartlar asosida hisob	Abdushukurov va b.

Raqamlashtirish yo'nalishi bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, masofadan turib zondlash va ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari bozorlarga kirishni yaxshilash, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Xitoy tajribasi misolida, raqamlashtirilgan ta'minot zanjiri sotishdagi yo'qotishlarni 75 foizgacha, transport va saqlash xarajatlarini esa 30 foizgacha kamaytirishi mumkinligi aniqlangan.

2. O'zbekistonda agroklasterning rivojlanishining statistik ko'rsatkichlari

ITIM, Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti hamda review.uz ma'lumotlari asosida 2017-2024 yillar mobaynida agroklasterning soni va qishloq xo'jaligining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi (1-jadval).

Ko'rsatkichlar tahlili shuni namoyon etadiki, agroklasterning soni yetti yil ichida qariyb 178 baravarga oshgan, biroq shu bilan birga qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 32 foizdan 19 foizga tushgan - bu tarmoqning iqtisodiyot

¹ Manba: Muallif tomonidan tuzilgan

tarkibidagi nisbiy ulushi kamaygan holda ham, uning mutlaq ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligining sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi (mehnat unumdorligi 61,3 foizga o'sgan).

Umum-tarmoq (sanoat) klasterlashtirish tajribasi ham shunga o'xshash yuqori samaradorlikni namoyon etadi: 2018-2022 yillarda O'zbekistonda shakllantirilgan 506 ta klasterning mahsulot ishlab chiqarish hajmi 32 baravar, investitsiyalari 5,2 marotaba, bandligi 2,5 marotaba oshgan, mehnat unumdorligi esa 12,9 baravar o'sgan - bu agroklastlar uchun ham o'xshash o'sish salohiyati mavjudligidan dalolat beradi.

Ayrim mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmining 2024 yilga nisbatan o'sishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi¹

Mahsulot turi	2024-yil hajmi, mln tonnada	2025-yil, mln tonnada	O'sish (kamayish) sur'ati, foizda
Don ekinlari	8,9	10,1	113,0
Sabzavotlar	12	13,7	114
Kartoshka	3,7	4,16	112
Meva va rezavorlar	3,3	3,4	105
Uzum	1,8	1,98	105
Poliz ekinlari	2,7	3,29	118
Go'sht	2,9	2,9	103
Sut	12,4	12,9	101
Tuxum	8,8	9,4	106

Eng yuqori o'sish sur'ati poliz ekinlari (18%), sabzavotlar (14%) va Don ekinlari (13%) bo'yicha qayd etilgan.

3. Agroklastlarda boshqaruv tamoyillarining amaliyotda qo'llanilishi

Agroklasterni samarali boshqarish uchun klassik menejment tamoyillarining amaliyotga moslashtirilgan holda qo'llanilishi natijasida yetti asosiy tamoyil tizimlashtirildi:


- mehnat taqsimoti tamoyili - har bir ishtirokchi (urug'chilik xo'jaligi, fermer, qayta ishlash zavodi, logistika kompaniyasi, savdo tashkiloti) o'z ixtisosligiga mos vazifani bajaradi, bu takrorlanishni yo'qotib samaradorlikni oshiradi;
- markazlashganlik va markazlashmaganlik mutanosibligi - strategik qarorlar (narx siyosati, eksport rejalari, investitsiya dasturlari) markazlashgan holda, operativ qarorlar esa har bir xo'jalik darajasida mustaqil qabul qilinadi;
- muvofiqlashtirish (koordinatsiya) tamoyili - yetishtirish, qayta ishlash va sotish zanjirining barcha bosqichlari vaqt va hajm jihatidan moslashtiriladi;
- rejalashtirish tamoyili - ekin maydonlari, urug' va o'g'it ehtiyoji, suv ta'minoti hamda mahsulot hajmi strategik va operativ rejalar asosida oldindan belgilanadi;
- motivatsiya tamoyili - adolatli narx siyosati, kafolatlangan xarid shartnomalari va daromad taqsimoti mexanizmlari orqali ishtirokchilar rag'batlantiriladi;
- nazorat va monitoring tamoyili - mahsulot sifati, standartlarga mosligi va shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi doimiy nazorat qilinadi;

¹ Manba: Stat.uz

- innovatsiya va ilmiy asoslanganlik tamoyili - ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik orqali yangi texnologiyalar va yuqori hosildor navlar joriy etiladi.

Agroklasterlarning olti o‘ziga xos xususiyati

Tahlil natijasida agroklasterlarni klassik fermer xo‘jaligidan va oddiy sanoat klasteridan ajratib turuvchi oltita o‘ziga xos xususiyat aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Agroklasterlarning tuzilmaviy va iqtisodiy-innovatsion guruhlar bo‘yicha olti o‘ziga xos xususiyati¹.

- Hududiy yaqinlik - ishtirokchilar bir geografik hududda joylashishi logistika xarajatlarini kamaytiradi va tez buziladigan xom ashyoni o‘z vaqtida qayta ishlashga imkon beradi.

- Zanjirli integratsiya - yetishtirish, qayta ishlash va sotish jarayonlari bir boshqaruv tizimi ostida ketma-ket bog‘langan zanjir sifatida tashkil etiladi.

- Hamkorlik-raqobat uyg‘unligi (coopetition) - ishtirokchilar umumiy infratuzilmadan birgalikda foydalanadi, lekin sifat va mijozlarni jalb qilishda bir-biri bilan raqobatlashadi.

- Qo‘shilgan qiymat zanjiri - xom ashyo har bosqichda qayta ishlanib (masalan, paxta - tola - mato - tayyor kiyim), qiymati izchil ortib boradi.


- Ilmiy-innovatsiya aloqasi - ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik orqali yangi navlar, texnologiyalar va malakali kadrlar klasterga jalb etiladi.

- Eksportga yo‘nalganlik - mahsulot sifati xalqaro standartlarga (Organic, Global G.A.P.) moslashtirilib, yagona brend ostida xalqaro bozorlarga chiqariladi.

SWOT-tahlil natijalari

Agroklaster tizimining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyat va xavflarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan SWOT-tahlil natijalari quyidagi rasmda umumlashtirilgan.

¹ Manba: Muallif ishlanmasi



2-rasm. Agroklaster tizimining SWOT tahlili¹.

Amaliyotda aniqlangan institutsional muammolar

O'zbekiston amaliyotini tahlil qilish natijasida quyidagi yetti muammo aniqlandi:

- fermer xo'jaliklarining qaramligi va erkinlik cheklanishi - kichik fermer xo'jaliklari klaster markaziga iqtisodiy jihatdan to'liq bog'lanib qoladi, ekin turi va sotish narxini mustaqil belgilay olmaydi; sudlar fermerlar foydasiga qaror chiqargan hollarda ham qarzdorlikni qoplash kafolatlanmagan holatlar qayd etilgan;

- raqobat muhitini yanada rivojlantirish zarurati - ayrim hududlarda bir klaster butun tuman qishloq xo'jaligini nazorat ostiga olib, raqobat muhitini yo'qqa chiqarishi mumkin;

- shartnomaviy munosabatlarni yanada takomillashtirish ehtiyojiva narx nizolari - jahon bozorida xom ashyo narxi pasayganda, klasterlar yil boshida tuzilgan shartnomadagi narxda to'lov qilishdan bosh tortishi mumkin;

- eksport salohiyatidan to'liq foydalanilmaslik - sifat standartlariga moslik, qayta ishlash quvvatining yetarli emasligi yoki logistika cheklovlari sababli hosilning sezilarli qismi eksport qilinmay qolmoqda;

- yuqori boshlang'ich investitsiya va infratuzilma talabi - zamonaviy omborlar, zavodlar va irrigatsiya tizimlarini barpo etish katta mablag' talab qiladi.

- muvofiqlashtirish murakkabligi va manfaatlar ziddiyati - fermer, zavod, bank va mahalliy hokimiyat o'rtasidagi manfaatlarining mos kelmasligi qaror qabul qilishni sekinlashtiradi;

¹ Manba: Muallif ishlanmasi. Rasm SI orqali chizildi.

- Ekologik va suv resurslari muammolari - klasterlar kengayishi bilan suv iste'moli ortadi, lekin mavjud irrigatsiya infratuzilmasi bunga ko'pincha tayyor emas.

Ushbu muammolarning aksariyati institutsional boshqaruv va shartnomaviy nazorat bilan bog'liq bo'lib, tizimning o'zidan emas, balki uni amalga oshirishdagi nuqsonlardan kelib chiqadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish yo'nalishida O'zbekistonda bir qator choralar ko'rilgan: Prezidentning 2017-yil 9-oktyabrdagi PF-5199-son hamda 2025-yil 14-fevraldagi PF-22-son Farmonlari orqali fermer va dehqon xo'jaliklari huquqlarini himoya qilish tizimi takomillashtirilgan, elektron onlayn auksion savdosi kabi shaffof mexanizmlar joriy etilgan. Bugungi kunda respublikada 84 784 ta fermer xo'jaligi faoliyat yuritib, ularga 3 mln. 588 ming gektar yer biriktirilgan. Moliyaviy nizolarda esa Vazirlar Mahkamasi imtiyozli kreditlar ajratish orqali fermerlar manfaatini qisman himoya qilgan. Shunga qaramay, HRW kabi xalqaro tashkilotlar shartnomaviy majburiyatlarning to'liq ijro etilmasligi davom etayotganini qayd etadi - ya'ni muammo to'liq emas, balki qisman hal qilingan.

Xorijiy davlatlarning tajribasi mazkur muammolarni hal etishning muqobil yo'llarini ko'rsatadi. Niderlandiyaning Food Valley mintaqasidagi "Oltin uchburchak" (davlat - ilm-fan - biznes) modeli O'zbekistondagi ilmiy-innovatsiya aloqasining zaifligi muammosini bartaraf etish yo'lini ko'rsatadi: bunda universitet markaziy o'rinni egallaydi, davlat siyosat belgilaydi, biznes esa amaliyotga tatbiq etadi[15]. FrieslandCampina - 1871 yildan beri faoliyat yuritayotgan fermer-egalik qiladigan kooperativ modeli - fermerning klasterga "qaram" bo'lish muammosini teskari aylantiradi: fermerlar o'zlari klasterning egasi bo'lgani sababli monopoliya va adolatsiz shartnoma muammosi kelib chiqmaydi[16]. Yevropa Ittifoqining Adolatsiz savdo amaliyoti direktivasi esa kuchli xaridorlarga nisbatan kuchsiz ta'minotchilarni himoya qilish uchun huquqiy vosita yaratadi - fermerlar o'z vaqtida to'lov olishi, buyurtmalar qisqa muddatda bekor qilinmasligi va xaridorning shartlarni bir tomonlama o'zgartira olmasligi kabi normalar aynan HRW qayd etgan muammoga to'g'ridan to'g'ri javob beradi. Turkiyaning to'qimachilik klaster modeli esa davlat subsidiya va soliq imtiyozlari orqali xususiy tashabbusni qo'llab-quvvatlagan holda, mulkni fermer/ishlab chiqaruvchi qo'lida qoldirish orqali monopoliya xavfining oldini olish yo'lini namoyish etadi.

Ushbu qiyosiy tahlil natijalari O'zbekiston uchun asosiy saboqlarni quyidagi jadvalda umumlashtirishga imkon beradi.

3-jadval

Xorijiy amaliyotlarning qiyosiy tahlil natijalari

Muammo	Xorijiy yechim
Fermerning klasterga iqtisodiy qaramligi	Niderlandiya: fermer-egalik qiladigan kooperativ modeli (FrieslandCampina)
Adolatsiz shartnoma shartlari	Yevropa Ittifoqi: Adolatsiz savdo amaliyoti direktivasi (2019/633)
Ilmiy-innovatsiya aloqasining zaifligi	Niderlandiya: "Oltin uchburchak" (davlat - ilm-fan - biznes) modeli

Monopoliya xavfi	Turkiya: ko‘p sonli raqobatdosh klasterlarni rag‘batlantirish siyosati
------------------	--

Aniqlangan institutsional muammolarning aksariyati yechimi mavjud bo‘lgan, biroq O‘zbekiston sharoitida hali tizimli tatbiq etilmagan amaliyotlar ekanligi ko‘rinadi. Bu, o‘z navbatida, mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyatini - faqat muammolarni aniqlash emas, balki ularga mos xorijiy yechimlarni taklif etishni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tadqiqotning cheklanishi sifatida shuni ta’kidlash lozimki, statistik tahlil asosan agregatsiyalangan (umumlashtirilgan) milliy darajadagi ma’lumotlarga asoslangan bo‘lib, mintaqalar va tarmoqlar kesimidagi farqlarni to‘liq ochib bermaydi - bu kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Xorijiy tajribani ko‘chirish xavflari: institutsional va madaniy nomuvofiqlik muammosi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan xorijiy kooperativ modellari (jumladan, FrieslandCampina misoli) ko‘pincha faqat ijobiy natijalar - yuqori daromadlilik, barqaror yetkazib berish zanjirlari, a’zolarining faol ishtiroki - nuqtai nazaridan taqdim etiladi. Biroq bunday modellarni tanqidiy tahlilsiz, to‘g‘ridan to‘g‘ri O‘zbekiston sharoitiga ko‘chirish jiddiy metodologik xatolikka olib kelishi mumkin. Buning sabablari quyidagilar:

1. Institutsional ishonch mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarurati. FrieslandCampina 1871 yildan boshlab shakllangan, ya’ni 150 yildan ortiq davom etgan kooperativ an’ana mahsulidir. Bu davr mobaynida Niderlandiyada fermerlar o‘rtasida, fermerlar bilan boshqaruv organlari o‘rtasida, shuningdek kooperativ va davlat institutlari o‘rtasida chuqur o‘zaro ishonch (institutional trust) shakllangan. Bu ishonch avloddan-avlodga o‘tib, norasmiy normalar, reputatsion mexanizmlar va o‘zini o‘zi boshqarish madaniyati orqali mustahkamlangan.

O‘zbekistonda esa, aksincha:

- oldingi tarixiy boshqaruv tajribalari ayrim hududlarda kooperatsiya tamoyillariga nisbatan ehtiyotkor munosabat shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan;
- bozor munosabatlariga o‘tish davrida ko‘plab norasmiy birlashmalar (jumladan, “fermer uyushmalari”) amalda foyda taqsimotida shaffoflik yetishmasligi tufayli obro‘sizlangan;
- fermerlar va qishloq xo‘jaligi subyektlari o‘rtasida gorizontali ishonch aloqalari, garchi mavjud bo‘lsa-da, institutsional darajada emas, ko‘proq shaxsiy-qarindoshlik aloqalari darajasida saqlanib qolmoqda.

Natijada, kooperatsiya modelini "yuqoridan" (davlat tomonidan) tezkor joriy etishga urinish, agar ishonch muhitini shakllantirishga alohida e’tibor berilmasa, shakliy (formal) tuzilmalar yaratilishi bilan yakunlanishi, ammo ularning real samarali faoliyat yuritmasligi xavfini tug‘diradi.

2. Huquqiy va mulkchilik tarixining tafovuti. G‘arb kooperativlari (jumladan, Niderlandiya) xususiy mulkchilik an’analari uzluksiz davom etgan sharoitda, fermerlarning yer va mol-mulkka bo‘lgan huquqi aniq kafolatlangan tizimda shakllangan. O‘zbekistonda yer davlat mulki hisoblanishi, fermer xo‘jaliklarining yerdan foydalanish huquqi esa ijara shartnomalari asosida cheklangan muddatlarda

amalga oshirilishi kooperativ a'zolarining uzoq muddatli investitsiya va birgalikdagi strategik rejalashtirishga bo'lgan motivatsiyasini susaytirishi mumkin.

3. Boshqaruv madaniyati va demokratik qaror qabul qilish tajribasi. FrieslandCampina kabi kooperativlarda a'zolar ovoz berish huquqi orqali boshqaruvga bevosita ta'sir ko'rsatadi, bu esa "bottom-up" (pastdan-yuqoriga) boshqaruv madaniyatiga asoslanadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligida esa an'anaviy ravishda "top-down" (yuqoridan-pastga) boshqaruv usuli ustuvor bo'lib kelgan, bu esa kooperativ prinsiplarining - jumladan, "bir a'zo - bir ovoz" tamoyilining - amaliyotda samarali qo'llanilishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, xorijiy tajribani, xususan Friesland Campina modelini, O'zbekiston sharoitiga aynan o'sha ko'rinishda ko'chirish emas, balki uning tizimli asoslari (ishonch mexanizmlari, huquqiy kafolatlar, uzoq muddatli boshqaruv madaniyati) O'zbekistonda qanday shakllanishi mumkinligini tahlil qilish zarur. Aks holda, kooperatsiya "forma"si joriy etilishi mumkin, lekin uning "mazmuni" - ya'ni ishonch va o'zaro mas'uliyatga asoslangan hamkorlik - vujudga kelmasligi ehtimoli yuqori bo'ladi. Bu esa, islohotning statistik ko'rsatkichlarda aks etishiga qaramay, amalda samarasiz bo'lib qolishi xavfini kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Agroklaster - A. Marshall va M. Porterning klaster nazariyasi asosida shakllangan, biroq biologik ishlab chiqarish sikli, mavsumiylik va xom ashyoning tezda buziluvchanligi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega tashkiliy-iqtisodiy tizimdir.

2017-2024 yillarda O'zbekistonda agroklasterlar soni 2 tadan 355 tagacha oshgan, mehnat unumdorligi 61,3 foizga o'sgan, biroq qishloq xo'jaligining YAIMdagi ulushi 32 foizdan 19 foizga tushgan - bu tarmoqning iqtisodiyot tarkibidagi nisbiy ulushi qisqargan holda, ishlab chiqarishning intensivlashuvi va eksportga yo'nalganligining ortganidan dalolat beradi.

Agroklasterlarni hududiy yaqinlik, zanjirli integratsiya, hamkorlik-raqobat uyg'unligi, qo'shilgan qiymat zanjiri, ilmiy-innovatsiya aloqasi va eksportga yo'nalganlik kabi olti xususiyati hamda mehnat taqsimoti, koordinatsiya, rejalashtirish, motivatsiya, nazorat va innovatsiya kabi yetti boshqaruv tamoyili tavsiflaydi.

SWOT-tahlil va amaliy kuzatuvlar agroklaster tizimining asosiy zaifligi institutsional boshqaruv va shartnomaviy nazoratda ekanligini ko'rsatdi - jumladan, fermerlarning iqtisodiy qaramligi, monopoliya xavfi va adolatsiz shartnoma shartlari eng dolzarb muammolar sifatida aniqlandi.

Xorijiy tajriba (Niderlandiyaning "Oltin uchburchak" va FrieslandCampina kooperativ modeli, Yevropa Ittifoqining Adolatsiz savdo amaliyoti direktivasi, Turkiyaning to'qimachilik klaster siyosati) aniqlangan muammolarning har biriga mos amaliy yechim namunalarini taqdim etadi va O'zbekiston sharoitida ularni moslashtirib joriy etish mumkinligini ko'rsatadi.

Kelgusida agroklastlarlar boshqaruvini takomillashtirish uchun fermer-kooperativ modellarini rivojlantirish, adolatli savdo amaliyotiga oid normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni institutsionallashtirish hamda mintaqaviy raqobatni ragʻbatlantirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. <https://imrs.uz/archives/news/report>
2. Marshall A. Principles of Economics. - London: Macmillan, 1890.
3. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press, 1990.
4. Delgado M., Porter M. E., Stern S. Clusters, Convergence, and Economic Performance // Research Policy. - 2014.
5. Urdushev X., Mavlyanov M., Eshonqulov S. Qishloq xoʻjaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishda klasterlar oʻrni // Ilm-fan va innovatsion rivojlanish, №3, 2021.
6. Eshonqulov S., Urdushev X. Meva-sabzavot klasterda uzum ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishni optimallashtirish masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №2, 2019.
7. Kodirova X.I. Sanoatni klasterlashtirish zaruriyati (paxta-toʻqimachilik sanoati misolida) // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023-yil, noyabr.
8. Abdulloyev A.J. Agroklastlarlar faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish: fan doktori (DSc) dissertatsiyasi. - Buxoro davlat universiteti, 2023.
9. Ergashev R.X., Beglayev U.X. Baliqchilik xoʻjaliklarida boshqaruv faoliyatini rivojlantirish yoʻllari // Innovatsion texnologiyalar, №2(34), 2019.
10. Adilova G. Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyotining raqamli iqtisodiyotga oʻtish orqali samaradorligini oshirish // Agroiqtisodiyot, №2(16), 2020.
11. Klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32 baravar oshdi // Yuz.uz. URL: <https://yuz.uz/oz/news/klasterlar-tomonidan-ishlab-chiqarilgan-mahsulotlar-hajmi-32-baravar-oshdi>
12. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-oktyabrdagi PF-5199-son Farmoni // LEX.UZ. URL: <https://www.lex.uz/docs/7388132>
13. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PF-22-son Farmoni URL: <https://www.tfqm.uz/analytics/index.php?page=post&id=7>
14. Study Visit Report: Food Valley // Innopolis. URL: https://www.innopolis.org/wp-content/uploads/2015/02/STUDY_VISIT_FOOD_VALLEY.pdf
15. Flying Dutch: Business Forum Report // Food Ethics Council. URL: https://www.foodethicscouncil.org/wp-content/uploads/2022/02/Flying-Dutch_Business-Forum-report_FINAL.pdf
16. FriyeslandCampina kooperativ modeli tarixi // Wageningen University Repository. URL: <https://edepot.wur.nl/244994>
17. Unfair Trading Practices Directive (EU) 2019/633 // European Commission. URL: https://agriculture.ec.europa.eu/common-agricultural-policy/agri-food-supply-chain/unfair-trading-practices_en